O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI HOKIMINING

QARORI

220100, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko‘chasi, 29-uy, tel: (62) 223-00-42, fax: 223-00-22

2024 - yil 1 - iyul 259-12-0-Q/24 Xorazm viloyati hokimligi

Xorazm viloyatida issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tariflarni belgilash to‘g‘risida

“Xorazm issiqlik manbai” DUKning 2024-yil 11-maydagi 346-sonli xatini ko‘rib chiqib, viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmalarining xulosalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrda “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 475-sonli qarori va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 25-moddalariga moddalariga asosan

Qaror qilaman:

1. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalarining tegishli xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Xorazm issiqlik manbai” davlat unitar korxonasi tomonidan taklif etilayotgan Xorazm viloyatida issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalarida rasmiy e’lon qilinganidan keyin kuchga kiradi.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari S.Bekchanov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **J.Raximov**

Xorazm viloyat hokimining
2024-yil 1-iyuldagi
259-12-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatida issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tariflar

Xizmat turi	**O‘lchov birligi**	**Taklif etilayotgan narx (tarif)** QQSsiz (so‘mda)
Issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti		
Aholi uchun	1 Gkal	128 018,0
Aholi uchun markaziy isitish xizmatlari bo’yicha isitish mavsumining har bir kuniga 1 kv. m isitiladigan maydon uchun	1 kv. m/kuniga	205,99
Aholi uchun issiq suv ta’minoti bo'yicha hisoblash asbobi bo’lmaganda bir oyda 1 kishiga	1oyda/1 kishiga	45 395,1
Aholi uchun issiq suv sarfini hisoblash asbobi bo’lganda	1 kub m	8 902,15
Byudjet tashkilotlari uchun	1 Gkal	504 000,0
Ulgurji iste’molchilar uchun	1 Gkal	504 000,0

***Izoh:** *byudjet tashkilotlari, ulgurji iste’molchilar va aholi uchun issiqlik energiyasi va issiq suv xizmatlari bo‘yicha tariflar (narxlar) qo‘shimcha qiymat solig‘i hisoblanib, so‘mda undiriladi.*